



## 2023 YILDAGI URF BO'LISHI KUTILAYOTGAN KIYIM TENDENTSIYALAR TAHLILI

**Obidov Ergashboy Nurmatjon o'g'li**

*Namangan muhandislik-texnologiya inastituti magstranti*

**O'ralov Lazizbek Sayibnazar o'g'li**

*Namangan muhandislik-texnologiya inastituti tayanch doktoranti*

[lazizbekoralov1@gmail.com](mailto:lazizbekoralov1@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada 2023 yildagi urf bo'lishi kutilayotgan kiyim tendentsiyalar tahlili o'rganib chiqilgan hamda iste'molchilar uchun tavsiya etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tendentsiya, buyum, inson, qizil, tavsiya, trikotaj, trend, urf, mavsum, ko'yak, sport, uslub.*

Biz bilamizki, moda o'z o'rniida turmaydi u kundan-kunga, yildan-yilga o'zgaradi. Axborotlashgan jamiyatda yashar ekanmiz moda ommalashib boraveradi. Biz o'tgan asr insonlari bilan hozirgi asr insonlarni taqqoslasak, taraqqiyot asrida modalar glaballashuviga guvoh bo'lamiz.

Moda, kiyim-kechak, poyafzal, aksessuarlar, bo'yanish, soch turmag'i, turmush yoki madaniyatda muayyan did yoki qiziqishning ma'lum vaqtgacha qaror topishini o'z ichiga olgan estetik ifodadir [1].

Uslubdan farqli o'laroq turmush buyumlari va badiiy asarning tashqi shakllarining qisqa muddatli hamda yuzaki o'zgarishlarini ifodalaydi [2].

Madaniy muhitda insonlar yashar ekan birinchi navbatda oziq-ovqatga ehtiyoj sezsa, keyingi o'rinda kiyim-kechakka ehtiyoj tug'iladi. Kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talab ortaveradi.

Kiyim insonning tashqi ko'rinishi 60 % gacha o'zgartirish xususiyatiga ega.

Zamonaviy modaning tez o'zgaruvchanligi, taklif etilayotgan buyumlarning yuqori raqobatchanligi, zamonaviy ishlab chiqarish va mahsulot o'tkazishning bozorga oid ob'ektiv shart-sharoitlari, shuningdek, kiyimlarda ham, bozor sharoitlarini tezda o'zgarib borishida iste'molchilarning talablarini hisobga olish hamda mahsulotning sifati va talabchanligini o'z vaqtida, juda aniq holda aytib berish mahorati qattiq talab etiladi [3]. Bu o'z navbatida tendentsiya bilan uzviy bog'lanadi.

Tendentsiya turli xil soha yo'nalishida turlicha talqin qilinadi. Modadagi tendentsiya bu haqiqiy (eng yaqin, qisqa muddatli) yo'nalish, moda rivojlanishining vaqt-vaqt bilan takrorlanishi. Tendentsiya- (ing. Tendency-moyillik, intilish, intiluvchanlik).

Tendentsiya bilan shug'ullanuvchi dunyoning yetakchi mamlakatlarining institut va universitetlarida kelayotgan yil uchun urfda bo'ladigan kiyim ranglari, kiyim fasonlari, siluetlari, kiyim uslublari hamda bezak buyumlari oldindan bashorat qilinadi.



Kelayotgan 2023 yilda moda olamida qanday yangiliklar kutmoqda. Quyida biz shu haqda so'z yuritamiz.

Bahor va yoz oylari uchun lavlagi-binafsha, qizil ranglar urf bo'lishi kutilmoqda. Shuningdek, Pantone rang instituti sariq, ko'k, yashil, to'q qizil, kulrang va oq ranglar kuzning eng zamonaviy ranglari deb atalishi mumkin. Pushti, yashil va firuza rangdagi liboslar ham modada bo'lishi bashorat qilingan. Yilning asosiy rangi esa karmin qizil bo'lishi aytilgan.

Qishda hattoki kuzda ham uzun va keng turadigan par kurtka (pxovik) hamda sport uslubidagi kiyim ya'ni mahsulot yoki palto, dublonka trendda bo'lishi mumkin. Kiyimlarni to'qilgan aksessuarlar: balavka, uzun qo'lqoplar va paypoqlar bilan to'ldirish mumkin. Bunday stildagi kiyimlar uchun dizaynerlar fikricha qora, oq, och jigarrang va zaytun rangdagi yashil ko'rinish ma'quldir. Zamonaviy qiyofani keng jensi, katta o'lchamli to'qilgan sviter va sharf bilan to'ldirish mumkin. Sport uslubidagi paltolar bilan krassovkalar mukammal obraz yaratishga imkon beradi. Bosh kiyimlari sifatida bulavka shapka, katta hajmli sharf foydalanish afzaldir. Uzun qo'lqop va paypoqlar ayni muddaodir.



1-rasm. 2023 yil qish mavsumida urf bo'lishi kutilayotgan erkaklar kiyimlari.



2-rasm. 2023 yilda kuz va qish mavsumlarida urf bo'lishi kutilayotgan ayollar kiyimlari.



2023 yilning bahor faslida charm (koja) obrazi, charm ko'ylaklar, trikotaj matodan yaratilgan kiyimlar va kostyumlar, qizil rangdagi ko'ylaklar, kalta buyumlarlarning (jemperlar, shortiklar) keng kiyimlar bilan birqalikda moslashtirilishi trendda bo'lisi aytilmoqda. Charm va trikotaj matosining trendda (trend- bu nimanidir o'zgartirishning asosiy tendentsiyasi) bo'lisi bir necha mavsumdan buyon saqlanib qolmoqda. Ushbu kiyimlarni ixcham so'mka, sharflar bilan boyitish mumkin. Shuningdek, stilistlar (stilist-shaxsning uslubini, tasvirini yaratuvchi shaxs) nozik kiyimlarga qo'pol oyoq kiyim, charm buyumlarni qo'shishni tavsiya qilishmoqda (3-rasm).



3-rasm. 2023 yilda bahor mavsumida urf bo'lisi kutilayotgan kiyimlar.

Kuz mavsumida etagi uzun va manjitli bo'lgan sport uslubidagi kiyimlar rubashkalar, keng etakli ko'ylaklar, plisserovka yubkalar, pasti keng kambinzonlar, kalta yengli shubalar hamda paltolar moda bolishi kutilmoqda.

Yuqoridagi dunyoning yetakchi moda mamlakatlari tomonidan berilgan bashoratlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga keldikki, 2023 yilda asosan uslubidagi, trikotaj hamda charm buyumlaridan tayyorlanadigan quyon yili uchun och jigarrang, yashil, qizil, pushti binafsha va ko'k ranglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o'z xohshingiz va ob-havo sharoitlariga qarab zamonaviy qiyofani yaratish uchun mashhur brendlар kollektiyasini kuzatishni tavsiya etamiz. O'ylaymizki, Stilist va dizaynerlarning tavsiyalariga qulоq solish bilan cheklanib qolmay, o'zingizga yoqqan, qulay kiyimlarni tanlashingizga ishonamiz. Yuqorida aytganimizdek, kiyimlar insonning tashqi ko'rinishi 60 % gacha o'zgartirishi bilan bir qatorda uning ruhiyati bilan ham bevosita bog'liqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. KAIKAR, SUSAN B. FASHION AND CULTURAL STUDIES. BLOOMSBURY VISUAL ARTS, 2019. ISBN 987-1350109605. OCLC 1057778310.



2. Kawamura, Yunija. Fashion-ology: an introduction to fashion studies. Berg, 2005. ISBN 987-1859738146. OCLC 796077256.
3. H. H. Komilova, J. S. Ergashev. "Materiallarni konfeksiyalash" O'quv-uslubiy majmua. Namangan-2018.

#### **INTERNET SAYTLARI:**

1. <https://eurodomik.ru/uz/foam-block/chto-takoe-trend-byt-v-trende-ili-byt-soboi-kakih-tendencii-stoit.html>
2. <https://www.gq-magazine.co.uk/fashion/article/autumn-winter-2021-trends-for-men>
3. <https://www.youtube.com/watch?v=WVksBIwleTw>
4. <https://uz.kuzminykh.org/2146-what-is-trend-and-trend.html>